

DOKTOR OBRAZI VA UNING BADIY-ESTETIK FUNKSIYASI ("Muvozanat" va "Abadiyat qonuni" romanlarida doktor obrazi)

Sh.Farhodjonova

FarDU 3-bosqich talabasi, Farg'ona

Annotatsiya. *Ushbu maqolada doktor obrazining tasvirlanishi, uning badiiy-estetik funksiyasi o'rganiladi. Doktor obrazini yoritishda badiiy psixologizm va nutqning ahamiyati Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat" va Nodar Dumbadzening "Abadiyat qonuni" romanlari misolida tadqiq qilinadi.*

Kalit so'zlar: *roman, obraz, badiiy psixologizm, personaj nutqi, dialog, psixofiziologik tasvir, badiiy-estetik mahorat.*

Аннотация. *В данной статье исследуется описание образа врача, его художественно-эстетическая функция, значение художественной психологии и речи в освещении образа врача, на примере романов Улугбека Хамдам «Равновесие» и «Закон вечности» Нодара Думбадзе*

Ключевые слова: *роман, образ, художественная психология, речь персонажа, диалог, психофизиологический образ, художественно-эстетические умения.*

Abstract. *In this article, the description of the doctor's image, its literary and aesthetic function is researched. The importance of literary psychology and speech in the illumination of the image of the doctor is studied on the examples of the novels "Muvozanat" by Ulugbek Hamdam and "Abadiyat qonuni" by Nodar Dumbadze.*

Key words: *novel, image, literary psychology, character's speech, dialogue, psychophysiological image, literary-aesthetic skill.*

Har qanday badiiy asarda qatnashgan obraz yozuvchi badiiy mahoratining namunasi hisoblanadi. Yozuvchi obraz yaratishda tipiklashtirishning rang-barang usullaridan foydalanadi. Bu o'rinda realizm adabiyotida keng qo'llanayotgan badiiy obraz yaratishning ikki usulini keltirish mumkin: jamlash yo'li orqali obraz yaratish va prototip asosida obraz yaratish. Ko'plab asarlardagi obrazlar jamlash yo'li orqali yaratilgan bo'lib, san'atkor hayotdagi ko'plab odamlar turmushini, ichki dunyosini, urf-odatini, ruhiyatini, mehnat faoliyatini puxta o'rganish asosida ularning eng muhim belgilarini, tipik xususiyatlarini saralab, tanlab oladi, umumlashtiradi, sintezlashtiradi, badiiy butunlikka yig'ib, konkret shaxs obrazi orqali ifodalaydi. Badiiy adabiyotda inson obrazini to'laqonli yaratishda bir qator badiiy unsurlar mavjud bular sirasiga badiiy psixologizm, personaj nutqi ham kiradi. Xususan, obrazlarni yaratishda badiiy psixologizm muhim sanaladi. O'zbek adabiyotshunosligida psixologizm tushunchasiga ijtimoiylikdan kelib chiqib yondashilgan bo'lsa, g'arb adabiyotshunosligida insonning ruhiy holati asosan ong va ong ostida kechayotgan jarayonlarga bog'liqligi Z.Freyd, K.G.Yunglarning psixotahlil nazariyasi, fransuz psixoanalitigi Mari Bonapart kabi tadqiqotchilar tomonidan badiiy asar psixologik mazmuni adabiyotshunoslikning psixotahlil predmeti sifatida "matn-avtor" tizimida o'rganildi. O'tgan asrning 80-yillarida o'zbek adabiyotshunosligida H.Umurov tomonidan

badiiy adabiyotda psixologizmning qo'llanilishi atroflicha tadqiq qilindi. Shuningdek, Sh. Botirova "Hozirgi o'zbek romanlarida psixologizm" (Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat", "Isyon va itoat", "Sabo va Samandar" romanlari misolida) tadqiqot olib bordi.

O'zbek va gruzin romanlarida doktor obrazi o'zaro qiyoslash orqali tahlil qilinar ekan, Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat" va Nodar Dumbadzening "Abadiyat qonuni" romanlaridagi doktorlarning tasvirlari misolida tadqiq qilish unumlidir. Har ikki romanda ham doktor obrazlarining ruhiyati, ma'naviy olami, dunyoqarashi badiiy psixologizmi va psixofiziologik holatlarida namoyon bo'ladi. Jumladan, "Adadiyat qonuni" romanida tasvirlangan doktor obrazi "o'n besh yoshli bemor" Bachanaga "o'n ming so'mga Tbilisidan topish mumkin bo'lgan" dorilar bilan bir qatorda dorilardan "ikki baravar qimmat bo'lgan sariyog', sut, baliq moyi, ikra, tuxum, qand, asal va Baxmaro..." kabi narsalarni ham dori-darmon sifatida tavsiya qiladi. Bu paytda bemorning "tomog'i quruqlashib" borar, "anchagacha indamay turgach, cho'ntagidan yo'llanmani olib, stol ustiga qo'yib, miq etmay eshik tomon yura boshlagani" da doktor bolani to'xtatib, tavsiyalarini yana davom ettirib, o'z kissasidan bolaga pul ham beradi: "To'xta! Aptekaga kirib, gemotogen ol, har kuni uch mahaldan choy qoshiqda ichib yur. Foydasi bor...– doktor kissasidan o'n so'm chiqazib, Bachanaga uzatdi. – Ma, ol...". Ushbu tasvirlardan anglashiladiki, doktor shaxsiyatida mehribonlik, oliyanoblik bor, u kichik bemorning dori-darmonlarga puli yetmasligini biladi, ammo oz bo'lsa-da moddiy yordam berish maqsadida Bachanaga pul beradi. Bola esa pulni olib, stolga, yo'llanmaning yoniga qo'yib, minnatdorchilik bildiradi va shu o'rinda Bachana suhbat davomida doktorga "amaki" deya murojaat qiladi. Bu esa doktorning bemor bilan munosabatlari qay darajada ekanligini namoyon qiladi. Doktor ruhiyati, ayniqsa, psixofiziologik tasvirlarda keng yoritiladi:

- Buvangga ayt, menga bir uchrashsin.
- Toblari yo'q, Yevgeniy amaki, yurolmaydilar, – dedi Bachana yolg'on gapirib.
- Unaqa bo'lsa, aytib qo'y...– doktorning tomog'iga bir narsa qadalib, gapirolmay qoldi.
- Nima deyin?
- Aytginki...– doktor tutilib- tutilib so'zlardi. – Aslo qo'rqma, o'g'lim! Hali kech emas! Sen baquvvat yigitsan, har qanday dardni yengib ketasan!
- Buvanga nima deyin, Yevgeniy amaki?
- Buvanggami?! – doktor birdan qizishib ketdi. – Borib ayt, u nokas darrov hamma narsasini – uyini, hovlisini, bor bisotini sotib, senga penitsillin olsin! Eshitdingmi! Orqaga surmasin!

Yuqorida keltirilgan tasvirda doktorning "tomog'iga bir narsa qadalishi" da, "gapirolmay qolishi" da, "tutilib- tutilib so'zlashi" da va oxirida "qizishib ketishi" da doktorning psixofiziologik holati yaqqol namoyon bo'ladi. Ruhiyatidagi o'zgarishlar, bemor bolani saqlab qolishga, davolashga intilishi har bir harakatida seziladi: "Doktor stolning yoniga chopib borib, pul bilan yo'llanmani oldi-da, mayda- mayda qilib yirtib, shiftga uloqtirdi, keyin Bachanaga o'girildi. Uning rangiga qarab bo'lmasdi.

- Nima degan odam bo'ldim! Men doktormanmi?!

Bachana doktorning nigohiga dosh berolmay, xonadan tez chiqib ketdi."

Ushbu parchada doktorning “Nima degan odam bo‘ldim! Men doktormanmi?!” deyishidayoq ichki olamidagi ruhiy iztiroblari personaj nutqida yaqqol namoyon bo‘ladi. Doktorning “stolning yoniga chopib borib, pul bilan yo‘llanmani mayda- mayda qilib yirtib tashlashi” da esa personaj psixologizmidagi dinamik harakat yuzaga chiqadi. Doktor bolaning sog‘ayishini juda xohlasa-da, tibbiy va moddiy yordam berolmasligidan qattiq pushaymonlik seziladi. Romanning keyingi qismlarida Bachana qirq yoshlardan o‘tgan yozuvchi sifatida tasvirlanib va miokard infarkt xastaligi tufayli kasalxonada davolanishi keltiriladi. Kasalxonada ilk bor tekshiruv jarayonida doktor bemorni tekshirganda hammasi joyida ekanligini bilgach “yengil tin olishi” da, palatadagi bemorlar bilan “hazillashib”, “yaxshi kayfiyat” ulashgan holatda iliq munosabatda bo‘lishi tasvirlanadi. Shuningdek, doktorning g‘amxo‘rlik kabi xislatlari bemorining vafoti boshqa bemorlarining ruhiyatiga salbiy ta’sir qilmasligiga harakat qilganida ham namoyon bo‘ladi: “Bulikaning o‘limidan so‘ng professor Bachana bilan ruhoniyni yomon o‘y-xayollardan asrash niyatida palataga hech kimni yotqizmaslikni va bo‘sh karavotni olib chiqib ketishni buyurdi”. Tbilisida gripp kasalligi juda keng tarqalganida kasalxonada yigirma kunlik karantin e‘lon qilinadi.” Professorning buyrug‘i bilan bemorlarning oldiga tanish- bilishlar u yoqda tursin, hatto yaqin qarindosh-urug‘larni ham kiritmay qo‘yishadi”. Tasvirlardan anglash mumkinki, doktorning har bir harakati va buyrug‘ida bemorlarining salomatligiga qayg‘urishi o‘z aksini topadi.

Ulug‘bek Hamdamning “Muvozanat” romanida bosh qahramon Yusufning o‘g‘lini davolagan doktor obrazi esa “ Abadiyat qonuni ” da tasvirlangan doktordan mutlaqo farq qiladi. Bu romanda ham bemor – bola: “Endigina atak-chechak yura boshlagan Muhammadning holi og‘ir edi, jonlantirish bo‘limida edi. To‘xtovsiz ichi ketar, ichaklari shamollagandi. Faqat suv va dori ichardi. Ignadan yonboshchalari ilma-teshik bo‘lib ketgandi. Shunday sho‘x, shaddod, bir zum tek turmaydigan bolakay endi bir ahvolda shalvirab yotardi” . Muhammadning ahvoli yomonligidan xabar topgan otasi Yusuf shahardan qaytib keladi va kasalxonadagi doktor bilan uchrashadi:

– Bolangizga isitilgan osh berishgan. Ustiga-ustak muzlatkichdan tarvuz olib yeganlar. Ichaklari qattiq shamollagan. Xullas, ahvol chatoq...

– Aka, menga qarang, nima qilishim kerak uning sog‘qolishi uchun? Ayting, nima zarur bo‘lsa, hammasini muhayyo qilaman! – Yusufning ovozi titradi.

– Dorilarni aytdik. Ukalaringiz topib kelishyapti. Agar qiynalib qolmasalaring, bitta dori bor, lekin sal qimmatroq, - qog‘oz qalam oldi u.

– Qiynalish nimasi, muhimi, o‘g‘limiz tuzalsin, aka! – Yusuf najot yo‘li topilgandek entikdi.

– Undan tashqari, yana qo‘shimchasi bor, qo‘shib emlansa, effekti chakki bo‘lmaydi.

– Qachonga olib kelay? – deb Yusuf o‘rnidan turdi.

– Qancha tez bo‘lsa, shuncha yaxshi, – dedi daftar bilan yuzini yelpib doktor.

Yuqoridagi diologda Yusufning “ovozi titrashi”, “najot yo‘li topilgandek entikishi” da bemor bolasining sog‘ayishiga umid bog‘layotgan ota ruhiyati yoritilsa, “ daftar bilan yuzini yelpiyotgan “ doktorning insoniy qiyofasi, ichki olami bolaning ahvoli yomonlasha boshlaganda, “ dori yozib berishdan charchamasligi” da namoyon bo‘ladi. Yusuf bolasini boshqa kasalxonaga o‘tkazmoqchi bo‘lganida doktor uni “ niyatidan qaytaradi va “ yana bir

dori bor, noyob, o'shani topa olsa, umid qilish mumkin" ligini aytadi. "Betinim berilayotgan har xil dorilarni bola vujudi ko'tara olmasligini" Yusuf doktorga tushuntirishga qancha urinmasin, doktor buni xohlamas, davolovchi doktor u ekanligini aytib, aralashmaslikni maslahat beradi. Shifoxonadagi muhit, doktorlarning bemorlarga munosabati qay holatda ekanligi "Toshkentdek azim shaharda ham hamkasblari orasida tanilib qolgan, qo'li yengil bolalar doktori hisoblangan ", Yusufning hamqishlog'i bo'lgan Mansurning shifoxonaga tashrifidagi tasvirlarda yaqqol aks etadi. Ayniqsa, "Mansurning kelishi bilanoq atrofni shu yerlik doktorlar o'rab olishib so'rasha, suhbatga torta ketishi" da, "uyiga shoshayotgan bosh vrach ham "toshkentlik" mashhur doktor bilan gurunlashib, uning ko'nglini olishga tushishi" da seziladi. Vanihoyat, doktorlar bemor bolaning oldiga kirishadi, qirq daqiqadan oshsayam doktorlardan xabar bo'lmagach, Yusuf palata eshigiga yaqinlashadi: "ichkaridan Mansur bilan kirgan doktorlarning jarangdor kulgusini eshitib, xayolida " O'g'limda o'zgarish bor, shekilli" , degan umidli o'y kechdi va yuragi yengil hapqirdi. Yetib kelib ichkariga mo'raladi" . Afsuski, ro'parasida "ko'zlari yumuq, og'ziga allaqanday dumli tutqich suqilgan, undan yuborilayotgan havo bir parchagina vujudni dam- badam yuqoriga naq sakratib tushirayotgan, azob chekayotgan Muhammadjon yotardi". Ayni paytda Mansur va "oppoq xalatlardagi doktorlar" Muhammadjonning shundoq bosh tomonida bir-birlariga latifa aytib kulishardi. Yusuf umrida bundan xunukroq, bundan jirkanchroq manzarani ko'rmaganligining berilishi orqali muallif ijobiy xislatlarga ega bo'lmagan, bemorining ahvoliga loqayd doktorlar obrazini yaratadi. Romanda keltirilgan doktorlarning tuban qiyofasi, manfaatparastligi, ma'nan yetuk emasligi, insoniy fazilatlardan yiroqligi Yusufning doktor bilan o'zaro ziddiyatga borganidagi tasvirlarda namoyon bo'ladi. Jumladan, "bolaning ichaklari ko'tarolmay" qolganida bir doktor Yusufga chiqib turishni va " tayyor bo'lganida chaqirishi" ni aytadi. "Yusufga bu gap xuddi yurakka kirgan nashtardek ta'sir qildi.

– Nima tayyor bo'lganda, ablah! – u vajohat bilan vrachga tomon ikki qadam qo'ydi.

– Har holda, otasiz, o'g'lingiz qiynalib jon berayotganini ko'rmang deymanda...Keyin bu yerda begonalarning turishi mum... – uning gapi og'zida qoldi. Chaqmoqdek tekkan musht zarbidan gandarab borib, orqasidagi tumbochkaga qo'shib ag'anadi. Yerga urilganda tumbochkaning tortmasi yarmigacha ochilib, dorilar to'kildi. Yusufning ko'zi ularga tushib tanidi – o'zi olib kelgan dorilar, engashib barmog'i bilan titib qaradi – kecha sotib olingan besh-oltita doridan bironyasi ochilmagan ham. Axir, bularni vrach "Juda zarur, olib kelgan zahotingiz beramiz, najot shulardan", demaganmidi? Yuqoridagi parchada shifokorning ichki olami badiiy nutq, psixofiziologik tasvirlar vositasida namoyon bo'ladi. Xususan, bemor bolaning otasi shifokorga musht tushirgunga qadar bo'lgan vaziyatgacha unda doktorlarga nisbatan ijobiy fikr yo'qola boshlagan edi, chunki bolaning " shundoq bosh tomonida bir-birlariga latifa aytib kulishlari" da " oppoq xalatlardagi doktorlar" ning kasbiga bo'lgan mas'uliyati oydinlashadi, "qimmatroq, noyob dorilar" ni tezroq topib kelishni aytib, ularni hatto " birontasini ochilmagani" , bemori uchun foydalanmagani kasbidagi sadoqati, bemorlariga mehri qay darajada quyi ekanligini ko'rsatadi. Yusufning mushtidan keyin "yozib o'tirgan pakana doktor allaqachon juftakni rostlagani" da ayrim mas'uliyatsiz doktorlarning qo'rqqoligi aks etadi. Shu kabi bir qator tasvirlar orqali muallif "Muvozanat" romanida kasbiga mas'uliyatsizlik bilan yondashadigan, bilimsiz doktorlar jamiyatdagi

muvozanatni yo‘qolishiga sabab bo‘luvchi kimsalar sifatida tasvirlaydi, kasbiga noloyiq bo‘lgan doktorlar nafaqat inson hayoti, balki jamiyat rivoji uchun xavfli ekanligi romandagi doktor obrazlari orqali yoritadi.

“Abadiyat qonuni” romanida bemor Bachana doktorning g‘amxo‘rligi, kasbiga sadoqati tufayli sog‘ayib ketadi va kasalxonada chinakam abadiyat qonunini kashf qiladi. Uni davolagan doktorlar obrazi esa barcha ijobiy xislatlarga ega, o‘z kasbiga munosib insonlar sifatida tasvirlanadi, “Muvozanat” romanida esa buning aksi: bemoriga befarq, o‘z manfaati, nafi yo‘lida har qanday tubanlikka bora oladigan, hatto go‘dakka nisbatan rahm-shafqat va mehr tuyg‘usini his qilishga ojiz salbiy xarakterdagi doktor obrazi shakllantirilgan. Doktor obrazlarining yaratilishida, ularning ichki kechinmalari, dunyoqarashi, ma‘naviy olami badiiy nutqida, ruhiyatining tasvirlarida to‘laqonli namoyon bo‘ladi. Bu kabi obrazlar tasviri esa har ikki muallifning badiiy-estetik mahoratining qanchalik yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Demak, har ikki ijodkor doktor obrazini yaratishda, avvalo, insoniylik, mas’uliyat, kasbga sadoqat tushunchalari muhimligi bilan bir qatorda nafaqat bemorlarga, balki atrofdagi insonlarga mehr ulashish, yaxshilikni tilash har qanday davrda va har qanday muhitda umuminsoniy burch ekanligi kabi ezgu g‘oyalarni ilgari surganlar.

FOYDALANILGAN MANBALAR:

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: G‘.G‘ulom, 1996.
2. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: A.Qodiriy, 2004.
3. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013.
4. Botirova Sh. Hozirgi o‘zbek romanlarida badiiy psixologizm. Filol.fan. nomz. ...diss. – Qarshi, 2019.
5. Usmonova S. O‘zbek va ingliz romanlarida ayol ruhiyati tasviri. Filol.fan. nomz. ...diss. – Farg‘ona, 2021.
6. Nodar Dumbadze. Abadiyat qonuni. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019.
7. Ulug‘bek Hamdam. Muvozanat. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021.